

15. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 273–276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>
16. Gulomkodiroya Mamura, & Parizoda Mirboboyeva. (2024). Qishloq taraqqiyotida turizmning roli: Rural turizmning mavjud imkoniyatlari, muammolari va ilg'or tajribalari. *University Research Base*, 760–769. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/213>
17. Omonjon Umarov, & Parizoda Mirboboyeva Umidjon qizi. (2023). Madaniy meros turizmi: Asosiy tendensiyalar, rivojlanish va muammolar (O'zbekiston va Turkiya misolida). *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8(8), 78–80. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.809>
18. Melibayeva G., & Parizoda M. (2024). TURIZM XIZMAT KO'RSATISH SOXASIDA BIZNES PSIXOLOGIYANING TUTGAN ROLI. *University Research Base*, 578–581. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/680>
19. Gulomqodiroya, M., & Mirboboyeva P. (2024). MEHMONXONA BIZNESIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI. *University Research Base*, 565–570. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/677>
20. Rasulov, X. Y. (2024). O'ZBEKISTON TURIZM SANOATIDA MADANIY TURIZMNING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 12, 71–76. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.993>

O'ZBEKISTONDA ETNOMADANIY TURIZM

Turaboyeva Yayra Rustamjonovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali
“Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrası
katta o'qituvchisi

Email: yturaboyeva23@gmail.com

Komilova Mohlaroyim Jaloldin qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali
Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida turizmga bo'lgan e'tibor, xususan, o'zbek xalqining milliy madaniyat, ilmiy merosi, xalq uslublarini o'zida jam etgan “Etnomadaniy turizm” tarmog'i masalasidagi mulohazalar, taklif va tavsiyalar, mavjud resurslarning joriy holati taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: Etnomadaniy turizm, etnik madaniyat, moddiy meros, an'ana, marosim, urf-odatlar, identifikatsiya.

Kirish: Dunyo xalqlari tarixida etnik turfa xillikning mavjudligi, yangi insonlar jamoasi bilan tanishishga urinish, turli jamoalarga birlashgan insonlarga qiziqish ibtidoiy odamlar davridan boshlangan. Hozirgi kundagi siyosiy evolyusiya va kommunikatsiya jarayonlarining ortib borishi natijasida etnik qarama-qarshiliklar ham ortib bormoqda. Xalqlarning identiklik fenomi ortib o'zaro munosabatlarda keskinlik avj oldi.

O'zbekistonda etnografik yoki “etnomadaniy turizm” turizm turlarining eng ommaboplaridan biri hisobalandi. Respublikamizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning aksariyati mamlakat bilan tanishish, tarixi va madaniyati haqida tasavvur xosil qilishni xoxlaydi. Sayohatchilar uchun yangi sarguzasht va o'zlari bilmagan xalqlar madaniyati va turmush tarzini bilishga bo'lgan ishtiyoq juda muhimdir. Shu jihat aynan O'zbekistonning har bir geografik mintaqasida mavjud bo'lib, osmon ostidagi muzeylar, madaniy meros obektlari, mahalliy muzeylar, xalq ijodi va tafakkuri mahsuli bo'lgan hunarmandchilik turlarining keng tarmoqda mavjudligi sayyohlar oqimining keskin tarzda oshib borishiga hizmat qiladi.

Asosiy qism: Turizm tarmog'ida mavjud resurslar alohida ahamiyatga ega bo'lgan manbadir. Shu bois mamlakat madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy merosini asraydi, muzey va qo'riqxonalar tashkil etadi. Dunyoning turli davlatlarida milliy, madaniy merosi, boyligi bo'lib, u davlatning mulki hisoblanadi. Ammo, ular orasida salmoqli qismigina jahon

madaniy merosi sifatida ahamiyatga molik bo'lgan ob'ektlardir. Shu bois jahon madaniyati rivojiga xissa qo'shgan moddiy va ma'naviy meros YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan bo'lib, ushbuda O'zbekistonning 4 ta shahri va 31 dan ortiq tarixiy maskanlari joy olgan hisoblanadi. O'zbekistonda 7000 dan ortiq tarixiy va go'zal tabiat-iqlim yodgorliklari mavjud[1]. YuNESKO ning konvensiyalari va tavsiyalari madaniy, tarixiy va tabiiy merosni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi, uning turizm rivojlanishidagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Jahon konferentsiyasida ushbu merosni saqlash va foydalanish asosida turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar qabul qilindi. Madaniyat va turizm sohalaridagi hamkorlik tamoyillari 1980 yilda Manilada va 1981 yilda Meksikoda qabul qilingan deklaratsiyalarda aks etgan. Tarixiy va madaniy yodgorliklar milliy boylik bo'lib, ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur. Turistik maqsadlar uchun hududni o'zlashtirishda "Saqlang - tiklang - zarar bermang" tamoyiliga rioya qilish kerak. Shu tarzda, merosni saqlash barqaror turizmni va madaniy almashuvni rag'batlantirib, tarixiy va madaniy muhitni kelgusi avlodlar uchun muhimligini ta'kidlaydi[2].

«Etnomadaniy turizm» tushunchasi “etnos”, “madaniyat” va “turizm” kabi so'zlari birikmasidan yasalgan tashkil etilib, mutaxassislar ushbu yo'nalishni dunyoning turli mintaqasida yashovchi xalqlari, millatlar madaniyati, arxeologiyasi, etnografiyasi, san'ati va turmush tarzi bilan bog'lab o'rganishni tavsiya qiladilar[3]. Hozirgi kunda butun dunyoda etnik madaniyatga qiziqish, etnik o'zini-o'zi anglash o'smoqda. Etnomadaniy merosni, o'ziga xoslikni, madaniy xilma-xillikni saqlash, turizm va madaniyatning o'zaro faoliyati muammolariga e'tibor kuchayib bormoqda[4]. Shu sabab, O'zbekistonda bu sohaning keng tarmoqda rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash hamda targ'ib qilish muhimdir.

Etnik turizmda mahalliy xalqlarning o'tmishi, uzoq yillik tajribalari, xo'jalik an'analari, qadryatlari va an'analari mahsuli hisoblangan madaniy merosini sayyohlarga ko'rsatish va targ'ib qilish tushiniladi. Xususan, bu o'rinda etnosning madaniyatiga urg'u beriladi. Etnomadaniyat bu etnik o'tmishda rivojlangan va hozirda rivojlanayotgan guruhning an'anaviy qadriyatlari, munosabat va xulq-atvor xususiyatlari mujassamlangan ijtimoiy hayotiga nisbatan qo'llaniladigan tushunchadir[5].

Etnik turizmni ifodalash mumkin bo'lgan ikkita asosiy tur mavjud. Birinchisi, hozirgi paytda mavjud bo'lgan, an'anaviy hayot va madaniyat xususiyatlarini saqlab qolgan aholi punktlariga tashrif. Bu aholi punktlarini ko'rgazmali deb atash mumkin, ular doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Bunday aholi punktlari orqali o'tadigan ko'plab sayyohlik yo'nalishlari mavjud. Ulardan eng mashhurlari Misrdagi Afrika badaviylari, Janubiy va Shimoliy Amerikadagi Hind qishloqlari, shuningdek, avstraliyalik aborijenlarning aholi punktlari. Sayyoh uchun Shimoliy Hindiston, Tailand va Okeaniya orollarining etnik guruhlar bilan tanishish qiziq.

Etnik turizmning ikkinchi turi, kundalik hayot muzeylari bilan tanishish. An'anaviy uy-ro'zg'or buyumlari va arxitektura namunalarini o'z ichiga olgan ochiq osmon ostidagi etnomuzeylar qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, sayyoh qandaydir madaniyat, davrga tegishli ob'ektni shaxsan ko'rish, uning maqsadi haqida bilish va o'z xalqi madaniyatining boshqasining madaniyati bilan qarindoshligini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Etnoturizm madaniy turizmning bir turi bo'lib, alohida millatlar va xalqlarni bilish va ularni o'rganish madaniy va til almashinuvidir[6]. Bu ta'rifga mutloq qo'shilgan xolda, etnosning naqadar madaniy tiplari ko'pligini anglash mumkin.

Etnomadaniy turizm turizmning elita turi bo'lib, u “turist madaniyatini” shakllantirishni taqozo etadi, bu milliy madaniyatning tiklanishi va rivojlanishining omili sifatida namoyon bo'ladi. Zero, bu jarayonda bir tomondan unutilgan an'anaviy qadriyatlar, hunarmandchilik maktabi qayta yaratilsa, ikkinchi tomondan, til, marosimlar ommalashtiriladi.

Etnomadaniy turizm tijorat sayohatining rivojlanishiga ta'sir etadi va hamda turistik tashkilotchilarning kasbiy faoliyati nazariyasi va amaliyoti bo'yicha aniqroq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini orttiradi[7].

Xozirgi kunda biror kishi xayoti davomida bir ijtimoiy guruxdan boshqasiga, bir davlatdan ikkinchisiga o'tib yashashi mumkin, lekin xar qanday xolatda ham u o'zining etnik mansubligidan

voz kechmaydi. Bu esa o'z navbatida uni o'ziga xos tarzda idrok etishga va ma'lum bir me'yoriy o'lchov asosida xayot faoliyatini yuritishga majbur etadi. Shu boisdan ham moslashuvchi mexanizmning muhim qismi etnik madaniyat hisoblanadi. Etnik madaniyat etnosga xos madaniy xususiyatlar majmuidan tashkil topadi. Etnik madaniyat kelib chiqishi, asosi shakllanishining muxim alomatlari va ma'lum bir umumiy qiziqishlar doirasida birlashgan kishilar guruxining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bunday ehtiyojlar shunisi bilan muhimki, ularda umumjamoaviy qiziqishlar aks etadi va mazmunan ushbu jamoa a'zolarining individual qiziqishlaridan kelib chiqadi.

Etnik madaniyatning asosini turli etnoslarga tegishli bo'lgan va har bir xalqning shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik ananalar, urf-odatlar, marosimlar va bayram va sayillar shakllanib taraqqiy etadi. An'ana bu tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy xayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy xodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy xodisa sifatida kishilar onggiga singgan, qabul qilingan tartib va koidalar majmuasi hisoblanadi[8]. Urf-odat esa, o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq xayotining barcha tomonidan oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irimsirimlar, o'zaro-muomala tarzi xamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim atamasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq xayotining ma'lum soxalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat[9].

Madaniyat merosi har bir xalqning faqat san'atkorlar, arxitektorlar, musiqachilar, yozuvchilar asarlari va olimlari ishlari emas, balki nomaterial merosni ham o'z ichiga oladi. Unga xalq og'zaki ijodi, xalq hunarmandchiligi, festivallar, diniy rituallar va boshqalar kiradi.

Shu o'rinda o'zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o'yinlar, mavsumiy va hunar-kasb marosimlari alohida o'rinni egallaydi. O'zbek xalqi orasida eng keng tarqalgan, milliy tusga ega bo'lgan urf-odatlardan mavsumiy marosimlar, qish faslida o'tkaziladigan gap-gashtak, yasa-yusun, bahorgi marosimlar, Navro'z, shoxmoylar (qo'sh chiqarish), lola yoki qizil gul sayli, loy tutish, sust xotin, yozgi marosimlardan «qovun sayli», «choy momo», kuzgi marosimlar hosil yig'imi bilan bog'liq «oblobaraka», shamol chaqirish, uzum sayli kabi mavsumiy marosimlar kiradi[10].

Etnomadaniy turizm mamlakatning tarixiy-madaniy potensialiga alohida ahamiyat beriladi. Ushbu turizm turining samarali rivojlanishi uchun madaniy meros ob'ektlari konstratsiyasi talab etiladi, ularga arxeologiya mahallalari, diniy va fuqaroli arxitektura, landshaft arxitekturasi, tarixiy shaharlar va qishloqlar, muzeylar, teatrlar, ko'rgazma zallari, ijtimoiy-madaniy infratuzilmalar, etnografik ob'ektlar va xalq hunarmandchiligi kabilar kiritiladi. Har bir hudud madaniy resurslarni taklif qila oladi, ammo, muvaffaqiyatli turizm uchun muhim ob'ektlar mavjud bo'lishi darkor.

Turistlar boshqa mamlakatlarga sayohat qilganda, ular jamiyatlarning madaniyat kompleksini, jumladan, tabiatni ham qabul qiladilar. Madaniyat kompleksining jalb etish qobiliyati san'at va tarixiy qadriyatlar, taklif qilingan joylarga nisbatan maqbulligi bilan aniqlanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda ajoyib inshootlar, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgoqlar vujudga keldi. So'nggi yillarda respublikamizda boks, o'zbek milliy kurashi, tennis bo'yicha jahon miqyosida ulkan chempionatlar o'tkazilmoqda, bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlar kelishiga olib kelmoqda. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Hozirgi kunga qadar YuNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga O'zbekistondan 6 ta ob'ekt kiritilgan. Ular, Navro'z, Palov madaniyati va an'analari, Askiya, Katta ashula, Boysun tumanining madaniy muhiti, Shashmaqom kabilardir. Bundan tashqari, nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid eng yaxshi tajribalar reestriga O'zbekistondan 1 ta ob'ekt kiritilgan bo'lib, u Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: atlas va adras to'qish an'anaviy texnologiyasini saqlash[11].

Madaniy – tarixiy resurslar, moddiy va madaniy turli yodgorliklari majmuasi, ma'lum mintaqaning turistlik qiziqish ob'ektlari hisoblanadi. Turistlik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy ob'ekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda qo'yidagilar tushiniladi:

- ✚ yodgorliklar: arxitektura binolari, arxeologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, yozuvlar;
- ✚ ansambillar: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambili;
- ✚ mehmondo'stlik joylari: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ro'yhatiga kiritiladigan ob'ektlarning qo'yidagi hususiyatlari hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;
- ajoyib madaniy, arxitektura ob'ektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;
- inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambillari, landshaftlari[12].

Etnik turizm madaniyatga asoslangan turizm turi sifatida odamlar haqidagi manbalardan oziqlanadi. Madaniy turizm tushunchasi sifatida, ziyorat turizmi, tarixiy turizm, badiiy turizm, gastronomik turizm, etnik turizm va boshqalarni kiritish mumkin. Ular garchi mahsulotlari va tarkibiy qismlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, asosan ularning har biri sayyohlar foydalanadigan mahsulot turidir. Madaniyat-bu inson qo'li va mehnati bilan mavjud bo'lgan hamma narsa hisoblanadi. Har doim ishlab chiqarish o'zgarishda davom etayotgan madaniyat insoniyat tarixi va turizmining eng muhim mahsulotidir. Turizm ta'minotining aksariyat qismini tashkil etadigan madaniyat so'nggi yillarda eng ko'p muhokama qilingan tushunchalarning boshida kelmoqda. Inson jamoalari o'zlarining shaxsiyatlarini ular ishlab chiqaradigan madaniyatga javob sifatida shakllantiradilar. Identifikatsiya shaxsning o'zini boshqa birov bilan farqlar o'qi bo'yicha identifikatsiyasidir. Bu shaxs o'zini turli fazilatlar bilan tavsiflash orqali quradigan tuzilishi hisoblanadi. Jamoalarda ham aynan identiklik, o'ziga xoslik alohida ko'rsatkich kabi ajralib turadi va bu jihat sayyohlar uchun juda qiziq masalalar tarkibiga kiradi[13].

Xulosa: sifatida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqlimi go'zal va keng bo'lganligi, qadimdan ushbu maskanda mahalliy qabilalar o'zaro hamjihatlikda va totuvlikda yashaganligi bois, boy ma'naviy merosga egalik qilgan. Uzoq yillik tajribalar xalq amaliy san'atida, marosim va an'analarida, qo'rinish va arxitekturasida yaqqol aks ettirilgan. Shulardan kelib chiqib, O'zbekistondagi mavjud tarixiy, madaniy, arxitektura va arxeologik merosini turizm imkoniyatlari sifatida keng foydalanish, dunyo hamjamiyatiga namoyish etish darkor.

O'zbekistonda etnomadaniy turizmni rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

1. Tarixiy va madaniy meros obektlarini saqlashda muhim bo'lgan moliyaviy masalalarni xalq etishda mahalliy tadbirkorlarni keng jalb etish, yoki ularga ushbulardan turizm maqsadida foydalanishga ruhsat berish.
2. Nomoddiy madaniy meroslarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda mahalliy guzarlar, xalq sayllari, xalqaro miqyosdagi targ'ibotlarni kuchaytirish
3. Turizm tarmog'ida tahsil oluvchi talabalarini o'z kasbiga nisbatan tushunchalarini kengaytirishga ko'maklashuvchi dasturlarni tuzib chiqish va bu masalada xorij tajribasini o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтабаев М. Р., Тухлиев И. С., Сафаров Б., Абдухамидов С. А.. (2018). Туризм: теория и практика. — Т.: Fan va texnologiya. 400 с.

2. Бобошев З. Н.(2022). Маданиятлараро коммуникация ва миллий ўз-ўзини англаш феномени. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Issue 10.
3. Кварталнов В.А.(2002). Туризм. Учебник. Москва: Финансы и статистика.
4. Бутузов А.Г.(2009). Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации / А.Г. Бутузов // Сервис в России и зарубежом. №4. - С.11-15.
5. Ивлева Н.В., Мамоев Б.Ш.(2021). Этнокультурный туризм Казахстана. Учебное пособие.- Алматы: ТОО Лантар Трэйд. - 245 стр.
6. Биржаков М. Б.(2007). Введение в туризм. Москва. – СПб.: Изд. дом Герда, – 576 с
7. Қорабоев У.(2002). Ўзбек халқи байрамлари.— Т.: Шарқ. Б.8.
8. Саримсоқов Б. (1986). Маросим фолклори. - Т.: Фан,— Б 2
9. Жабборов И.(1994). Ўзбек халқи этнографияси. Ўқитувчи, Тошкент. 320 б.
10. Кварталнов В.А.(2002). Туризм. Учебник. М.: Финансы и статистика, 320 с.
11. [ЮНЕСКО Репрезентатив Ро'йхатида киритилган об'ектлар - Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan \(ich.uz\)](http://ich.uz)
12. Тухлиев И.С(2008). Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИСи, 58 б.
13. Türkoğlu N(2023). Özel İlgi Turizminde Güncel Konu ve Eğilimler. Ankara

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ROLI

O'tayev O'tkirbek Matyoqubovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Kasbiy tayyorgarlik fakulteti

Maxsus fanlar sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotasiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining turizmni rivojlantirishdagi roli va xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim, shuningdek, turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha amalga oshiradigan vazifalarining ayrim jihatlariga ilmiy asoslangan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, ichki ishlar organlari, xavfsiz turizm, vazifa, strategiya, turistlar xavfsizligi, turizm obyektlari, infratuzilma, xavfsiz turizm.

Kirish: Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish barobarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangilanishlar samarasi o'laroq, ichki ishlar organlarida ham tizimli ishlar qilinmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikaning turizm salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi obro'sini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rildi. Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

Shunday islohotlardan biri sifatida Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5611-son hamda 2019 yil 1 fevraldagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan